

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563

eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 10 (2023)

KORPORATIV KORXONALARNI SAMARALI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Mamasadikov Shaxzod Abdulkaxxarovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi MVA yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Maqolada korporativ korxoanlarni boshqarishda va u yerdagi ishlab chiqarishni tashkil qilishda raqamli texnologiyalarning o'rni va samaradorligi tahlil qilib berilgan bo'lib, mqlodagi fikrlar va xulosalar ilmiy adabiyotlar va manbalar asosida asoslantirildi.

Kalit so'zlar: Jamiyat, inson resurslari, raqamli texnologiya, mobil texnologiya.

Аннотация: В статье анализируется роль и эффективность цифровых технологий в управлении корпоративными предприятиями и организации производства на них, а мнения и выводы в статье обоснованы на основе научной литературы и источников.

Ключевые слова: Общество, человеческие ресурсы, цифровые технологии, мобильные технологии.

Annotation: The article analyzes the role and effectiveness of digital technologies in the management of corporate enterprises and the organization of production at them, and the opinions and conclusions in the article are substantiated on the basis of scientific literature and sources.

Key words: Society, human resources, digital technologies, mobile technologies.

KIRISH. Jamiyat taraqqiyotining mahsuli bu ishlab chiqarish jarayonidir. Bizga ma'lumki insoniyat yer yuzida yashay boshlagandan boshlab, albatta, o'z ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish ustida izlanilib kelinmoqda. Inson dastlab, o'z ma'naviy ehtiyojga bo'lgan zaruratni bilmagan, balki ko'proq insonni qiziqtirgan narsa bu moddiy ehtiyoj bo'lgan. Sababi och qolmaslik uchun yeish kerak, chanqamasligi uchun ichish kerak va mana shu ehtiyojni zarurat orqali dastlab tasodiflar keyin esa ong mahsuli bo'lmish fikrlar orqali amalga oshira boshlagan. Ehtiyoj alaloqibatda insonni mehnat qilishga bo'lgan munosabatlarini shakllantira boshladи. Tabiat esa inson ehtiyoji uchun moddiy resurs bo'lib xizmat qila boshladи. Mana necha mln yildan beri tabiat biz uchun qadrlidir. Chunki o'z istaklarimiz va ehtiyojlarimizning ulkan zaxirasi aslida bu – ona tabiatdir.

Hozirgi kunda jahon tamadduni shiddat bilan rivojlanayotgan texnologik jarayonlarga o'xshaydi va bu o'xshashlik zamirida alabta insoning zahmatli mehnati yotibdi. Mehnat orqali inson necha yillardan beri o'z kamolotiga erishib kelmoqda. Hozirgi zamon taraqqiyot formulasining yechimi bu – aqliy mehnatdir. Chunki aqliy mehnatning samaradorligi jismoniy mehnat samradorligidan 10, 100 balki 1000 barobar ko'proq daromad keltirishi mumkin. Bu degani 1000 odam qiladigan ishni 1 odam mavjud mashina yoki dasturlashtirilgan ishlab chiqarish qurilmasi orqali amalga oshirishi mumkin. O'tgan asrning 60 yillardan boshlab ishlab chiqarish texnologiyalarini jadal rivojlanib kelmoqda. Bu esa taraqqiyotni bir zum ham rivojlanishini o'z holiga tashlab qo'ygani yo'q. Inson o'z istaklari va ehtiyojlarasi asosida 21 asrda yangi texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayonlarini tom ma'nodagi istemolchisiga aylandi. Shiddatlil globashuv bizga yanada yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini amalga oshirish uchun tinchlik bermayabdi. Tinim bilmas inson tafakuri esa mana shu yangi texnologiyalar ustida har kuni yangi operativ tadqiqotlarni va izlanishlarni olib bormoqda. Albatta inson ehtiyojlarasi chegara bilmas makondir. Bu foniyl dunyoning eng achchiq qismati ham inson istaklari va ehtiyojlaridir. Kechagina holi fanda nomalum bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari hozir hayotimiz me'zoniga aylanib bormoqda. Inson mehnati orqali yaratuvchi degan ulug' nomga sazovor ekan bu mehnatning albatta zavqini ham ko'rib yashashga haqlidir.

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563

eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 10 (2023)

ASOSIY QISM. Biz bugun ushbu maqolamiz orqali bugungi kunda mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlaridan biri korporativ korxonalarini boshqarishda ulardagи mavjud moddiy texnik bazasini shakllantirish va samarali faoliyat yuritish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish yo‘llarini tahlil qilib berishga harakat qilamiz....

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha samarali texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shuning uchun ham davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi prezidenti 2018 yil 28 dekabrdagi 2019 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bo‘yicha quyidagilarni aytib o‘tdi: “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko‘zda tutadigan “Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsyasi”ni ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini hayotga tadbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o‘tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda. Shuning uchun Hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish topshiriladi. Bu borada axborot xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish zarur”.

Iqtisodiyotni erkinlashtirishning oltin qoidalaridan biri bu-ishlab chiqarishni erkinlashtirishdan iboratdir. Ishlab chiqarish hozirgi kun bozor iqtisodiyotidagi mavjud talab va taklifdan kelib chiqib yaratiladi va o‘z istemolchisiga yetkaziladi. Aynan korporativ boshqaruvdagi korxonalarini samarli ishslash uchun zamon bilan hamohang ravishda jamiyat, davlat taraqqiyotiga ildam qadamlar bilan kirib kelayotgan raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Korxonani boshqarayotgan menenjer har qancha aqli bo‘lmasin, lekin uning ish unimdonligini oshiraoladigan texnologiya bo‘lmas ekan, bozorda o‘z xaridorini yo‘qotib qo‘yishi hech gap emas. Shu bosidan hozirgi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga qo‘yilayotgan tannarx bozor siyosatiga to‘g‘ri kelishi kerak. Bozorda mavjud mahsulotni reklama qilib uni sota oladigan marketolog albatta ma’lum bir raqamlar bilan prognoz qiladi, risk qiladi va o‘z qarorini amalga oshiradi. Hozirgi kunda korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sota olish ham nihoyatda mushkul ish va bu qiyinchiliklar yengib o‘tish uchun albatta sabr, matonat kerak bo‘ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida «... nafaqat iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini, balki, eng avvalo, hududlarni kompleks rivojlantirish va mamlakatimiz barcha fuqarolarining hayotiy manfaatlarini ta’minlashga va ularning daromadlarini ko‘paytirishga doir istiqboldagi muhim vazifalar turishi kerak»[1]. Bu holat, aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirish strategiyasi va samarali boshqarish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017-2021 yillarga O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategiyasi muhimdir. Harakatlar strategiyasining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”da aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish va samarali boshqarishni tashkil qilish jarayonlariga “korporativ boshqaruvining zamonaviy standartlar prinsiplari va usullarni joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish” muhim vazifalardan hisoblanadi[2].

Korporativ boshqaruv hozirgi kunga kelib korxonalarini boshqarishning nafaqat zamonaviy falsafasiga, balki samaradorlikni ta’minlaydigan muhim texnologiyasiga aylanib ulgurdi. Takomillashgan korporativ boshqaruv natijasida iqtisodiy qo‘silgan qiymatning (economic value added – EVA) sezilarli darajada ko‘payishi, samaradorlikning ortishi va riskning kamayishi yuz berishi turli empirik tadqiqtlarda o‘z aksini topgan. Xususan, bir qator

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563

eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 10 (2023)

yetakchi ekspertlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, samarali korporativ boshqaruv yo'lga qo'yilgan kompaniyalarda iqtisodiy qo'shilgan qiymat korporativ boshqaruvning standartlari amal qilmaydigan kompaniyalarga nisbatan 8,5 foizga yuqori bo'lgan[3]. Korporativ boshqaruv amaliyotini yaxshilash O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish jarayonining bir qismi bo'lib, u xususiy mulkni himoyalash, aksiyadorlar manfaatlari va huquqlarini ta'minlash, mamlakat iqtisodiy alohida o'rin tutuvchi investitsion jozibador, raqobatbardosh milliy korporatsiyalarni shakllantirish uchun shart sharoitlarni yaratish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotning lokomativi bo'lgan ishlab chiqarshini erkinlashtirish hisobiga bozor sharotida raqobatni yuzaga keltirish va chuqur o'ylangan erkin iqtisodiy platformani yaratish O'zbekiston uchun nechog'lik muhim va dolzarb vazifadir. Aynan korporativ korxonalarini aksiyalarini sotib olayotgan aksionerlar kelajakka umid bilan qarashi lozim. Aksioner juda katta tavakkal qilib o'z mablag'larini korxona kelajagi uchun sarflaydi. Davlat aynan mana shu tavakkalchilik asosida qurilgan iqtisodiy makonni qo'llab quvvatlashi lozim bo'ladi.

Erkin bozor sharoitada bu sohada juda katta yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotgan jahoning rivojlangan davlatlarida bu borada davlat tomonidan uzoqqa ko'zlangan ishonchi kafolat tizimi mavjud bo'lib, aynan ular korporativ korxonalarini kelajakda davlat va jamiyatga ulkan daromad keltiradigan resursga aylatiradi. Mana jahonda bir vaqtlar kichik kooperatsiyadan boshlagan ishlab chiqarish korxonları bugungi kunga kelib jahon tan olgan "brend" larga aylandi. Alabatta uning zamirida ulkan mehnat yotadi, buni ham yoddan chiqarmasligimiz lozim. Dunyo raqobat maydoni ekan, demak bugun o'z mahsulotlari bilan shu bozorga tashrif buyurayotgan korporativ korxonalar ham bozor munosabtlaridagi "talab va taklif" etikasidan kelib chiqib yondashishligi maqsadga muvofiqliр.

Bugungi kunda, raqamli iqtisodiyot sharoitida marketing faoliyatida innovatsion marketing texnologiyalari: internet marketing, one-to-one (munosabatlar) marketingi, mobil marketing, to'g'ridan-to'g'ri marketing yo'naliш va shakllarini rivojlantirish, korxona va haridorlar aloqalarini o'zaro online tarzda tashkil etish, marketing tadqiqotlarini olib borish, tovar va xizmatlarni siljitchida interaktiv marketing uslublaridan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Shuningdek, korxonalar faoliyatida interaktiv va raqamli marketingning nazariy hamda amaliy tomonlarini o'rganish bilan bir qatorda bozor sharoitida korxonalarining amaliy faoliyatida paydo bo'ladigan muammolar bilan bog'liq xulosalarni shakllantirishda va ularning yechimini topishga e'tiborini qaratadi.

Shu boisdan korxonalarda raqamli iqtisodiyotning eng yaqin yordamchisi bo'lgan mobil marketingdan foydalanish muhim mezon sifatida qaralmoqda.

Jamiyat hayotida axborot asrining davom etishi va takomillashishi oqibatida barcha sohalarda axborot texnologiyalarining kirib borishi kuchaymoqda. Shu jumladan marketing sohasida ham axborot va internet texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Axborot texnologiyalari orasida mobil texnologiyalari ham marketingning zamonaviy jabhalaridan biri sifatida shakllangan. Mobil marketing haqida quyidagicha aytishimiz mumkin.

Mobil marketing- bu marketingning nisbatan yangi sohasi bo'lib, mobil qurilmalar orqali kompaniya va mijozlar o'rtaсидаги ikki tomonlama marketing aloqalarini ta'minlaydi. Marketing kompaniyalarining yuqori samaradorligi mobil qurilmalar bilan ishlatilganda yana ham ko'payadi. An'anaviy ommaviy axborot vositalaridan ko'ra mobil qurilmalar orqali tovarlar va xizmatlarni sotib olishlarni potensial mijozlar ko'proq xoxish bildirmoqdalar.

Mobil marketingning rijovlanishida aloqa vositalari va mobil aloqa texnologiyalari ahamiyati yuqoridir. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

- Mobil telefon va mobil aloqa muhiti;
- Mobil aloqa xizmati operatorlari;

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563

eISSN 2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 10, issue 10 (2023)

- Mobil aloqa hizmatlari: so‘zlashuv, mobil internet va pochta;
- Mobil aloqa vositalari: Smartphone, iphone va planshetlar;
- Mobil aloqa vositalari yordamida axborot almashish: Bluetooth, SMS va MMS;
- Mobil telefonlardan foydalanish va axborot almashish madaniyati.

Mobil marketingning rivojlanishida mobil telefon qurilmalarining o‘ni beqiyosdir. Mobil telefon – mobil aloqada foydalilaniladigan telefon apparati turi hisoblanadi. Hozirgi kunda, mobil telefon klaviatura va ekranga hamda sensorga ega bo‘lib asta-sekin kompyuter, faks apparati, telefon apparati, qaydlar kitobchasi vazifalarini bajaruvchi ko‘p maqsadli abonent tizimiga aylanmoqda. Mobil aloqa muhiti–tayanch stansiyalar va bir guruh abonentlar tizimidan iborat bo‘lib, abonentlarning bir-birlari bilan o‘zaro axborot almashinuvini ta’minlovchi texnik vositalar majmuasidir. Mobil aloqa tizimida barcha ma’lumotlar mobil telefon orqali elektromagnit to‘lqinlari ko‘rinishida simsiz havo orqali uzatiladi.

Mobil aloqa xizmati operatorlari – abonentlar (mijozlar) uchun mobil aloqa xizmatlarini taklif qiluvchi korxona, firma yoki tashkilotlardir. Operatorlar vazifasiga radio chastotadan foydalanish va xizmat ko‘rsatish uchun kerakli hujjatlarni olish, o‘zining mobil tarmog‘ini tashkil qilish, foydalanish, xizmat shartlarini ishlab chiqarish, xizmat to‘lovlari yig‘ish va texnik xizmat ko‘rsatish kabilalar kiradi.

Mobil telefonlar va boshqa mobil aloqa vositalaridan foydalanganda so‘zlashish madaniyatiga, xabarlarni yozish va elektron pochtadan foydalanish etikasiga hamda telefon apparatidan foydalanish qoidalariga rioya qilish zarur. Telefon orqali nojo‘ya so‘zlarni gapirish, turli nojo‘ya xabarlarni jo‘natishdan saqlaning. Mobil marketing SMSlar (Qisqa xabarlar xizmati) orqali mobil qurilmalar yordamida tovarlar va xizmatlarni targ‘ib qilish uchun mobil qurilmalar yordamida amalga oshiriladigan aksiyalar, tadbirlar va kampaniyalar to‘plami sifatida 2000 yilda Yevropa va Osiyo bo‘ylab mashhurlikka erishdi va keyinchalik deyarli butun dunyo bo‘ylab amalga oshirildi. Ushbu ma’lumotni tarqatish kanalining paydo bo‘lishi va ommalashishi uchun zarur shart bu aholining uyali aloqadan keng foydalanishidir, shuningdek ko‘plab kompaniyalar o‘z ma’lumotlar bazalarini mijozlarning telefon raqamlari bilan terganligi.

XULOSA. Korporativ korxonalarda boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini yo‘lga qo‘yish va ushbu tizimning joriy etilishi korxona mahsulotlari haqida mijozlarga ma’lumotlar berish (reklama qilish), mijoz xaridni amalga oshirganda uning mahsulot to‘g‘risida fikriga ega bo‘ish (axborot olish), doimiy holatda mijozlar bilan aloqada bo‘lish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2016 yil 15 dekabr, № 247 (6682).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i 4947-sont farmonining 1-ilovasi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi». www.lex.uz.
3. E.Metrik (Wharton School of Business), P.Gompers va J.Ishii (Harvard University) tomonidan AQShning 1500 ta kompaniyalari bo‘yicha olib borilgan va natijalari 2003 yilda Quarterly Journal of Economics jurnalining fevral sonida nashr etilgan.